



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	



MARIYA MONTESSORI TA'LIMIDA BOLALARNING MUSTAQILLIGINI VA IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-DIDAKTIK SHART- SHAROITLARI



Asqarova Ma'mura Sadriddinovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti
 "Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim metodikasi"

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maria Montessori pedagogik tizimi doirasida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning mustaqilligi hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Montessori muhitining tuzilishi, "tayyorlangan muhit" tushunchasi, didaktik materiallar va erkin tanlash tamoyilining bolalar rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida aniqlangan shart-sharoitlar zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholangan. Maqolada Montessori metodikasining O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish istiqbollari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Montessori pedagogikasi, mustaqillik, ijodiy faoliyat, tayyorlangan muhit, didaktik materiallar, erkin tanlash, maktabgacha ta'lim, individual yondashuv, bolalar rivojlanishi, pedagogik shart-sharoitlar.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and didactic conditions for developing independence and creative activity in preschool and primary school-age children within the framework of Maria Montessori's pedagogical system. The structure of the Montessori environment, the concept of the "prepared environment," didactic materials, and the principle of free choice, along with their impact on child development, are examined. The conditions identified as a result of the study are evaluated in terms of their applicability to modern educational practice. The article also outlines the prospects for adapting Montessori methodology to the educational system of Uzbekistan.

Key words: Montessori pedagogy, independence, creative activity, prepared environment, didactic materials, free choice, preschool education, individual approach, child development, pedagogical conditions.

Аннотация: В данной статье проведён научно-теоретический анализ педагогико-дидактических условий развития самостоятельности и творческой активности детей дошкольного и младшего школьного возраста в рамках педагогической системы Марии Монтессори. Рассмотрены структура среды Монтессори, понятие "подготовленной среды", дидактические материалы и принцип свободного выбора, а также их влияние на развитие ребёнка. Выявленные условия оценены с точки зрения возможности их применения в современной образовательной практике. В статье также освещены перспективы адаптации методики Монтессори к системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: педагогика Монтессори, самостоятельность, творческая деятельность, подготовленная среда, дидактические материалы, свободный выбор, дошкольное образование, индивидуальный подход, развитие детей, педагогические условия.

KIRISH

XXI asr – ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy o'zgarishlarning jadal sur'atda rivojlanayotgan davridir. Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – yosh avlodni faqat bilim bilan qurollantirib qolmay, balki ularni mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga qodir, o'z potensialini to'liq namoyon eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu vazifaning amalga oshirilishida maktabgacha ta'lim alohida o'rin tutadi: zamonaviy neyropedagogika va kognitiv psixologiya tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, bolaning miya rivojlanishining eng faol bosqichi 0–6 yosh oralig'ida kechadi va bu davrdagi ta'limiy muhit, kasbiy yondashuvlar hamda didaktik shart-sharoitlar keyingi butun hayotiy rivojlanishga poydevor yaratadi ^[1, 2]. Aynan shu nuqtai nazardan Maria Montessori (1870–1952) ning ta'limiy tizimi bugungi kunda ham jiddiy ilmiy e'tiborni tortmoqda.

Montessori 1896-yilda Rim universitetini tibbiyot yo'nalishi bo'yicha tamomlab, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida kuzatuvlar asosida o'ziga xos pedagogik yondashuvni shakllantirdi. 1907-yilda Rimning San Lorenzo kvartalida ochilgan "Casa dei Bambini" – "Bolalar uyi" esa bu yondashuvning birinchi amaliy sinovi bo'ldi. Natijalari shunchalik yuqori samaradorlik ko'rsatdiki, tez orada bu g'oya butun Yevropaga, so'ngra jahonning 140 dan ortiq mamlakatiga tarqaldi. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab 25 000 dan ortiq Montessori muassasalari faoliyat yuritmoqda^[5].

Montessori ta'limining markazida "bola o'z-o'zini quradi" (auto-education) g'oyasi turadi. Bu falsafa bola tabiatiga chuqur ishonchga asoslanadi: har bir bola o'zida rivojlanishga bo'lgan tabiiy intilishni olib keladi, o'qituvchining vazifasi esa bu intilishni yo'naltirish va unga to'sqinlik qilmaslikdan iborat. Pedagogik jihatdan bu qarash an'anaviy ta'lim paradigmasini tubdan o'zgartiradi – o'qituvchi bilim uzatuvchi emas, balki muhit yaratuvchi va kuzatuvchiga aylanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim islohotlari jadal amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PF-4312-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" bolalarning intellektual, jismoniy, estetik va ijodiy rivojlanishini ta'minlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish hamda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish vazifalarini belgilagan. Shu bilan birga, 28.01.2022-yildagi PF-60-son² "2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi"da ham maktabgacha ta'limni yangi sifat darajasiga ko'tarish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan.

Biroq amaliyotda O'zbekistonning ko'pchilik maktabgacha ta'lim muassasalarida hali ham an'anaviy, o'qituvchi markazli yondashuv ustunlik qilmoqda: mashg'ulotlar asosan frontal shaklda, qat'iy dastur asosida va barcha bolalar uchun bir xil tezlikda olib borilmoqda. Bolalarning individual farqlari, qiziqishlari va rivojlanish sur'atlariga moslashish yetarli darajada ta'minlanmagan. Natijada ko'plab bolalarda ichki motivatsiya pasayadi, ijodiy tashabbuskorlik rivojlanmaydi va ta'limga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi xavfi yuzaga keladi.

Aynan shu muammolar kontekstida Montessori pedagogik-didaktik shart-sharoitlarini ilmiy asosda o'rganish va ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholash dolzarb va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot Montessori metodikasining nazariy asoslarini zamonaviy pedagogika, psixologiya va neyrofan yutuqlari bilan qiyoslab tahlil etishga hamda ulardan kelib chiqadigan pedagogik-didaktik shart-sharoitlar tizimini asoslashga yo'naltirilgan.

Maria Montessori o'z pedagogik tizimini ishlab chiqishda tibbiyot, biologiya, antropologiya va psixologiya yutuqlarini sintez qilgan. Uning eng muhim asarlaridan biri – "The Montessori Method" (1912) – maktabgacha ta'limda bolaning erkin faoliyatiga imkon beruvchi muhit yaratish g'oyasini ilmiy asoslab bergan^[1]. Keyinchalik "The Absorbent Mind" (1949) asarida u bola miyasining 0–6 yosh oralig'idagi noyob xususiyatini – "o'zlashtiruvchi aql" (absorbent mind) konsepsiyasini kiritgan. Bu tushunchaga ko'ra, yosh bola kattalar singari ongli harakat qilish o'rniga muhitni to'liq his-tuyg'ular orqali "shimiltirib" oladi^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Montessori nazariyasining psixologik asoslari Lev Vygotsky rivojlanish psixologiyasi bilan kuchli uyg'unlik kasb etadi. Vigotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" (zona blizhayshego razvitiya – ZBR) konsepsiyasida bolaning hozirgi mustaqil imkoniyatlari va kattalar yoki tengdoshlar yordamida erishishi mumkin bo'lgan daraja orasidagi masofa g'oyasini asoslab bergan^[3]. Montessori tizimida aralash yosh guruhlari va didaktik materiallarning bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi aynan ZBRni hisobga olgan holda qurilgan.

Nobel mukofoti sovrindori James Heckman (2006, 2013) o'tkazgan longitudinal iqtisodiy tadqiqotlar maktabgacha ta'limga sarmoya kiritish eng yuqori ijtimoiy daromad (7:1 nisbat) keltirishini isbotlagan hamda sifatli maktabgacha ta'limning kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatgan^[4].

Angeline Lillardning 2006 va 2017-yillardagi eksperimental tadqiqotlari esa Montessori maktablarida tahsil olgan bolalarning ijro funksiyalari (executive functions), ijodiy yozuv, o'qish, matematika va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar bo'yicha an'anaviy ta'lim olgan tengdoshlariga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada ustun ekanligini ko'rsatgan^[5].

O'zbekiston pedagogika fanida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim masalalari N. Muslimov, O'. Tolipov, M. Usmonboyeva, R. Mavlonova, G. Sobirov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan, biroq ularning ishlarida Montessori metodikasiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari natijasida maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2017-yildagi 5 000 tadan 2024-yilga kelib 30 000 tadan oshdi. Biroq miqdoriy o'sish bilan birga sifat masalasi – xususan, bolalarning mustaqilligi va ijodiy rivojlanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar – hali to'liq yechimini topgani yo'q. Shu bois, mazkur maqola mavzuning O'zbek pedagogikasidagi ilmiy bo'shliqni to'ldiruvchi muhim hissa sifatida baholanadi.

1 <https://lex.uz/docs/-4327235>

2 <https://lex.uz/docs/-5841063>



Montessori metodikasini chuqurroq tushunish uchun uni an'anaviy ta'lim tizimi bilan qiyosiy tarzda tahlil qilish zarur. Shu maqsadda quyidagi jadvalda ikki tizimning asosiy pedagogik parametrlari bo'yicha farqlari keltiriladi.

1-jadval: **Montessori va an'anaviy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili**

Mezon / Criterion	Montessori tizimi	An'anaviy tizim
O'qituvchi roli	Kuzatuvchi, yo'lbo'shchi	Bilim uzatuvchi, markaziy shaxs
O'quv muhiti	Tayyorlangan, erkin, estetik	Sinf, stol-stul, doskaga yo'nalgan
Baholash	Kuzatuv, portfolio, xato nazorati	Ball, baho, standart test
Yosh guruhlari	Aralash yosh (3 yillik sikl)	Bir yosh, sinf bo'yicha
Motivatsiya	Ichki (intrinsik)	Tashqi (mukofot/jazo)
Erkinlik darajasi	Tartibli erkinlik (freedom within limits)	Cheklangan, o'qituvchi nazoratida
Ijodiy faoliyat	Ta'lim jarayoniga singdirilgan	Alohida dars sifatida (san'at, musiqa)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Montessori tizimi barcha asosiy pedagogik parametrlarda an'anaviy tizimdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar tasodifiy emas – ular Montessori metodikasining chuqur ilmiy asosga ega bo'lgan yaxlit falsafasidan kelib chiqadi. Bola "to'ldirilishi lozim bo'lgan idish" emas, balki "o'z-o'zini rivojlantiruvchi organizm"dir. Bu ontologik farq butun pedagogik yondashuvni o'zgartiradi. Montessori pedagogikasining asosiy nazariy tayanchlaridan biri – sezgir davrlar (sensitive periods) tushunchasidir. Ushbu tushunchani u biolog Hugo de Vriesning o'simliklar va hayvonlar rivojlanishidagi "kritik davrlar" g'oyasidan ilhomlanib, bolalar rivojlanishiga tatbiq etgan. Sezgir davrlar – bolaning muayyan ko'nikmalarni (til, harakat, tartib, ijtimoiy o'rganish va h.k.) o'zlashtirish uchun ayniqsa qulay va sezgir bo'lgan qisqa vaqt oralig'idir. Bu davrda o'rganish oson va tabiiy kechadi, undan so'ng esa murakkablashadi.

2-jadval: **Montessori sezgir davrlari va pedagogik imkoniyatlar**

Yosh / Davr	Sezgir davr	Pedagogik imkoniyat	Montessori materiali
0–3 yosh	Tilni o'zlashtirish, tartib, harakat	Muhit tartibi, jismoniy faoliyat	Kundalik hayot mashg'ulotlari
3–6 yosh	Hissiy idrok, ijtimoiy o'rganish	Sensorika, til, matematika asoslari	Hissiy materiallar, harflar, sonlar
6–9 yosh	Mantiqiy tafakkur, ma'naviyat	Kosmik ta'lim, qiyosiy tahlil	Kosmik ta'lim to'plami
9–12 yosh	Ijtimoiy adolat, bilim chuqurligi	Loyihaviy o'rganish, tadqiqot	Tadqiqot materiallari, kutubxona

Sezgir davrlar nazariyasi zamonaviy neyropedagogika bilan ham to'liq mos keladi. Neyrologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sinaptik ulanishlarning eng jadal shakllanishi aynan 0-6 yosh davrida kechadi va bu davrda ta'lim muhitining sifati sinaptik arxitekturaga bevosita ta'sir etadi. Montessori tomonidan kuzatuv asosida aniqlangan sezgir davrlar hozirgi neyrofani ma'lumotlari bilan tasdiqlangan – bu uning metodikasining fundamental ilmiy asosini yanada mustahkamlaydi ^[7]. Yuqoridagi nazariy tahlil va xalqaro tadqiqotlar asosida Montessori tizimida bolalarning mustaqilligi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi oltita asosiy pedagogik-didaktik shart-sharoit aniqlandi.

3-jadval: **Montessori pedagogik-didaktik shart-sharoitlari tizimi**

No	Shart-sharoit	Ilmiy asosi	Amaliy ko'rinishi
1	Tayyorlangan muhit	Bronfenbrenner ekologik tizim nazariyasi ^[12]	Bolaga mos o'lchamli mebel, materiallar tartibi, estetik bezak
2	Didaktik materiallar tizimi	Piaget operatsional tafakkur nazariyasi ^[13]	Hissiyotdan abstraktga bosqichma-bosqich o'tish
3	Erkin tanlash	Deci & Ryan o'z-o'zini belgilash nazariyasi ^[10]	Bola nima, qancha, kim bilan ishlashni o'zi tanlaydi
4	Aralash yosh guruhlari	Vigotsky ZBR – tengdoshdan o'rganish ^[3]	3–6 yoki 6–9 yosh birgalikda ishlaydi
5	Uzluksiz ishchi tsikl	Csikszentmihalyi oqim nazariyasi ^[9]	2.5–3 soatlik to'xtatilmagan mashg'ulot bloki
6	Kuzatuvchi o'qituvchi	Dewey tajribaviy ta'lim ^[16]	O'qituvchi aralashmaydi, faqat zarurda taklif beradi

“Tayyorlangan muhit” (prepared environment) Montessori pedagogikasining markaziy konsepsiyasi bo‘lib, bola rivojlanishining fizik, psixologik, ijtimoiy va estetik sharoitlarini bir vaqtda qamrab oladi. Bu tushuncha Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi ^[2] bilan uzviy bog‘liq: bolaning rivojlanishi mikrosistemadan (oila, sinf) makrosistemaga (jamiyat, madaniyat) qadar ko‘p qatlamli muhit ta’sirida kechadi va bu ta’sirlarning sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tayyorlangan muhitning beshta asosiy komponenti mavjud:

- jismoniy tartib – materiallar qat’iy belgilangan joyda, bolaga qulay balandlikda, tartibli va estetik holda saqlanadi;
- erkinlik va chegara – bola erkin yurishi, tanlashi va ishlashi mumkin, biroq muhit qoidalariga va boshqalarga hurmat qilishi shart;
- go‘zallik va tabiiylik – sinf bezagi sodda, tabiiy materiallardan tayyorlangan bo‘lib, ortiqcha vizual “shovqin”dan holi bo‘ladi;
- tabiat bilan aloqa – tirik o‘simliklar, hayvonlar va tabiiy yorug‘lik mavjudligi bilan ta‘minlanadi;
- ijtimoiy muhit – katta bolalar kichiklarga yordam beradi, o‘qituvchi esa kuzatuvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Pedagogik-didaktik shart-sharoit sifatida tayyorlangan muhitning samarali ishlashi uchun quyidagi talablar bajarilishi zarur: materiallar bolaning hozirgi rivojlanish darajasiga mos kelishi; materiallar sonining cheklangan bo‘lishi va har bir materialdan faqat bitta nusxa mavjudligi (bu kutish, navbatga rioya qilish va predmetning noyobligini anglash ko‘nikmasini shakllantiradi); muhitning doimiy, barqaror va bashorat qilinadigan bo‘lishi (bu bolada ichki tartib tuyg‘usini mustahkamlaydi).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Montessori didaktik materiallari bola mustaqil ishlashi uchun maxsus konstruksiya qilingan, aniq pedagogik maqsadga ega hamda “xato nazorati” (control of error) tamoyiliga asoslangan o‘quv qurollarining yaxlit tizimidir. “Xato nazorati” – bu materialning o‘zida xato mavjudligini ko‘rsatuvchi mexanizm bo‘lib, bola o‘z xatosini o‘qituvchi aralashuvisiz mustaqil aniqlashi va tuzatishi mumkin. Masalan, silindrlar to‘plamida kichik silindr katta teshikka sig‘ib qolsa, noto‘g‘ri joylashtirilganlik darhol seziladi. Bu mexanizm bolada ichki motivatsiyani saqlaydi hamda noto‘g‘ri javob uchun uyat yoki qo‘rquv tuyg‘usini bartaraf etadi.

Didaktik materiallar beshta soha bo‘yicha tizimli ravishda tashkil etilgan: kundalik hayot mashg‘ulotlari (practical life), hissiy idrok materiallari (sensorial), matematika, til va madaniyat (biologiya, geografiya, tarix). Har bir materialda izolyatsiyalangan sifat tamoyili qo‘llaniladi: bir vaqtning o‘zida faqat bitta yangi tushuncha yoki ko‘nikma o‘rgatiladi. Masalan, Montessori silindrlar to‘plami faqat o‘lchamni (katta-kichik) izolyatsiyalangan holda o‘rgatadi; rang, shakl kabi boshqa atributlar o‘xshash holda saqlanadi.

Erkin tanlash Montessori tizimida cheksiz erkinlik emas – “tartibli erkinlik” (freedom within limits)dir. Bu tushuncha falsafiy nuqtai nazardan J.J. Russo va J. Dyui ta‘lim falsafalari bilan hamohang bo‘lsa-da, Montessori unga aniq didaktik shakl bergan ^[6]. Bola quyidagilarni mustaqil tanlay oladi: qaysi material bilan ishlashni, qancha vaqt sarflashni, kim bilan yoki yolg‘iz ishlashni, sinfda qayerda o‘tirishni. Biroq u ikkita muhim cheklov doirasida harakat qiladi: materiallarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish va boshqa bolalarga halaqit bermaslik. Bu pedagogik yondashuv Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga (SDT) muvofiq ravishda avtonomiya ehtiyojini to‘liq qondiradi. Bundan tashqari, neyropsixologik tadqiqotlar tanlash imkoniyati prefrontal korteks faoliyatini faollashtirishini va ijro funksiyalarini (diqqat, rejalashtirish, impuls nazorati) rivojlantirishini ko‘rsatadi ^[7]. Bu esa mustaqillik va ijodiy faoliyat uchun muhim neyrologik asos yaratadi.

Montessori sinflarida turli yoshdagi bolalar birgalikda ta‘lim oladi – odatda 3–6 yosh yoki 6–9 yosh guruhlari shaklida. Bu tuzilma L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi (ZBR) nazariyasiga asoslanadi ^[3]: katta yoshdagi bola kichik yoshdagiga biror narsani o‘rgatish jarayonida o‘z bilimini mustahkamlaydi va tizimlashtiradi (o‘rgatib o‘rganish effekti). Kichik bola esa kattaroq tengdoshini kuzatib, uning xatti-harakatlarini modellaydi. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish nuqtai nazaridan aralash yosh guruhlari bolalarda empatiya, mas’uliyat, hamkorlik va yetakchilik ko‘nikmalarini tabiiy ravishda shakllantiradi. Bundan tashqari, raqobat muhiti minimallashtiriladi – bola o‘zidan kattalar bilan raqobatlashmaydi, balki o‘z rivojlanish yo‘li bo‘ylab harakat qiladi.

Montessori sinflarida 2,5–3 soatlik uzluksiz “ishchi sikl” (work cycle) saqlanadi. Bu davr davomida mashg‘ulotlar bo‘linmaydi, signal berilmaydi va bolalar bir faoliyatdan boshqasiga majburan o‘tkazilmaydi. Har bir bola o‘zi tanlagan material bilan ishlaydi, uni tugatgach joyiga qo‘yadi va keyingi mashg‘ulotni mustaqil tanlaydi. Bu sikl bolaga o‘z ishiga chuqur sho‘ng‘ish va Mihaly Csikszentmihalyi ta’riflagan “oqim holati”ga erishish imkonini beradi ^[4].



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzluksiz ishchi sikl diqqatni boshqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Angeline Lillard olib borgan eksperimental tadqiqotlarda Montessori sinfidagi bolalar an'anaviy ta'lim oluvchi tengdoshlariga nisbatan konsentratsiya va faoliyatga kirishish ko'rsatkichlari bo'yicha statistik jihatdan yuqori natijalar ko'rsatgan ^[5]. Bu neyropedagogik jihatdan muhimdir, chunki diqqatni boshqarish barcha ijodiy va mustaqil faoliyatning asosini tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida aniqlangan oltita pedagogik-didaktik shart-sharoit tizimli tarzda o'rganilganda, ularning bir-biridan ajralmas, o'zaro bog'liq va bir-birini kuchaytiruvchi kompleks ekanligi ma'lum bo'ladi. "Tayyorlangan muhit" bo'lmasa, didaktik materiallar samarali ishlamaydi; erkin tanlash bo'lmasa, ichki motivatsiya rivojlanmaydi; uzluksiz ishchi sikl bo'lmasa, "oqim holati"ga erishish mumkin emas. Bu shart-sharoitlar alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ishlashi zarur.

Zamonaviy neyropedagogika ma'lumotlari ^[7] Montessori tamoyillarining ilmiy asosini yanada mustahkamlaydi: bolaning miya rivojlanishi uchun 0–6 yosh davridagi sifatli, boyitilgan muhit (enriched environment), erkin harakat, stresssiz ta'lim muhiti hamda ichki motivatsiyaga asoslangan faoliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Stress gormoni – kortizolning yuqori darajasi bolaning miya rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, prefrontal korteks faoliyatini susaytiradi va diqqat-e'tiborni boshqarishni qiyinlashtiradi ^[8]. Montessori muhiti stressni minimallashtirib, kognitiv rivojlanish uchun qulay neyrologik zamin yaratadi.

O'zbekiston sharoitida tatbiq etish nuqtai nazaridan bir qator muammolar va imkoniyatlar mavjud. Muammolar qatoriga quyidagilar kiradi:

- sertifikatlangan Montessori o'qituvchilari sonining yetarli emasligi;
- original Montessori materiallarining qimmatligi;
- milliy maktabgacha ta'lim standartlari (DTS) bilan integratsiya zarurligi;
- ota-onalar va ma'muriyatda metodika to'g'risida yetarli tushuncha mavjud emasligi.

Imkoniyatlar sifatida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- O'zbekiston hukumatining ta'lim islohotlariga kuchli siyosiy e'tibori;
- xalqaro tashkilotlar – UNICEF, UNESCO, ADB bilan hamkorlik imkoniyatlari;
- mahalliy ustalar tomonidan arzon Montessori materiallarini ishlab chiqarish;
- pedagogik universitetlarda Montessori modullarini joriy etish imkoniyati.

Rathunde va Mihaly Csikszentmihalyi (2005) ^[5] o'tkazgan keng qamrovli tadqiqotda Montessori va an'anaviy maktab o'quvchilarining tajribasi taqqoslanganda, Montessori o'quvchilari ta'lim jarayonida "oqim holati"ni (flow state) 2,5 baravar ko'proq his etganligi aniqlangan. Bu natija o'qituvchilar va ta'lim menejerlari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki "oqim holati" ichki motivatsiya, ijodiy faoliyat va chuqur o'rganishning eng ishonchli psixologik ko'rsatkichi hisoblanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu maqolada o'tkazilgan keng qamrovli ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy pedagogik tadqiqot va adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, Maria Montessori pedagogik tizimi bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan, empirik jihatdan tekshirilgan hamda zamonaviy neyropedagogika tomonidan tasdiqlangan yaxlit shart-sharoitlar tizimini taklif etadi. Aniqlangan oltita asosiy pedagogik-didaktik shart-sharoit – tayyorlangan muhit, didaktik materiallar tizimi, erkin tanlash, aralash yosh guruhlari, uzluksiz ishchi sikl va kuzatuvchi o'qituvchi – yaxlit organik kompleks sifatida bir-birini kuchaytiruvchi sinergetik ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tizimning har bir elementi alohida olinganda ham pedagogik samaradorlikka ega bo'lsa-da, faqat yaxlit holda qo'llanilgandagina to'liq pedagogik natija beradi.

Montessori o'quvchilarining an'anaviy maktab o'quvchilariga nisbatan ta'lim jarayonida "oqim holati"ni (flow state) 2,5 baravar ko'proq his etishi aniqlangan. "Oqim holati" esa ijodiy faoliyatning eng ishonchli psixologik ko'rsatkichi hisoblanadi. Bundan tashqari, Montessori sinfidagi bolalar ochiq savollarga (open-ended questions) noodatij va original javoblar berishda, muammoni bir nechta yo'l bilan yechishda hamda qisman ma'lumot asosida xulosa chiqarishda statistik jihatdan yuqori natijalar ko'rsatgan. Montessori muhiti nafaqat pedagogik, balki biokimyoviy va neyrologik darajada ham bolaning ijodiy va mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi.

Amaliy tavsiyalar:

- O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlariga Montessori pedagogikasi bo'yicha maxsus kurs kiritish;
- bir yoki bir nechta shaharda Montessori pilot maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va ilmiy monitoring o'tkazish;
- mahalliy hunarmandlar va ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda arzon Montessori materiallarini ishlab chiqarish dasturini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PF-5712-son Farmoni. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. – Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4327235>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent, 2022. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. Lillard, A. S. Montessori: The Science Behind the Genius. – 3rd ed. – New York: Oxford University Press, 2017. – 408 p.
4. Ludwig, H. Montessori-Pädagogik und modernes Schulwesen. – Münster: LIT Verlag, 2003. – 284 S.
5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. Self-determination theory: A macrotheory of human motivation, development, and health // Canadian Psychology. – 2008. – Vol. 49, No. 3. – P. 182–185.
6. Association Montessori Internationale. About Montessori. – URL: <https://montessori-ami.org> (murojaat: 2024).
7. Rathunde, K., & Mihaly Csikszentmihalyi M. Middle school students' motivation and quality of experience: A comparison of Montessori and traditional school environments // American Journal of Education. – 2005. – Vol. 111, No. 3. – P. 341–371.
8. So'fiyeva, G. N., & Nishonova, S. T. Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 186 b.
9. Seldin, T. How to Raise an Amazing Child the Montessori Way. – New York: DK Publishing, 2017. – 224 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.